
Viloyat hokimining yangi yil bayram tabrigi va sovg'alari topshirildi

Yangi yil bayrami oldidan Qo'shtepa tumanining ijtimoiy hayotiga o'zining munosib hissasini qo'shgan, uzoq yillar turli sohalarda mehnat qilgan nuroniy mehnat faxriylari yo'qlandi.

Tuman hokimi Anvarjon Abdullayev hamda mutasaddi idoralarning rahbarlari mahallalarda bo'lishib, nuroniylar va mehnat faxriylari holidan xabar olishdi. Tashrif chog'ida viloyat hokimi Xayrullo Bozorovning nuroniylarimizga yo'llagan Yangi yil tabriklari o'qib eshittirildi hamda bayram sovg'alari ulashildi.

O'z o'rnida ko'pni ko'rgan nuroniylarimiz davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibordan mamnun bo'lishib, duoda bo'ldilar.

2024-12-28 18:00:51